

Korrupsiyaga qarshi birga kurashamiz

Har qanday Jamiyat siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va farovonlikka intiladi. Shu maqsadda turli chora – tadbirlar qo‘llaydi, islohotlar o‘tkazadi. Millat va mamlakat faravonligiga, islohotlar muvaffaqiyatiga erishishning asosiy shartlaridan biri – qadimiy illat korrupsiyaga qarshi kurashishdir.

Dunyo davlatlari hukumat organlari mas’uliyatini kuchaytirish, hususiy sektorda halollikni rivojlantirish shartlari va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlash bo‘yicha turli xil strategiyalar, dasturlar va chora – tadbirlar qabul qilmoqda. Afsuski, hanuzgacha korrupsiyaga qarshi kurashish shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hayotimizning asosiy muammolaridan biri bo‘lib saqlanib qolmoqda.

Hozir dunyoda korrupsiyaning zarari qariyb 3 trillion AQSh dollarini tashkil etmoqda, biroq muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek **“Bu katta raqamlar haqiqiy holatni va korrupsiya natijasida ko‘rilayotgan haqiqiy zararining aniq hajmini to‘liq ifoda eta olmaydi. Eng yomoni – Jamiyat ko‘radigan ma’naviy zarar ko‘lamini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi”**.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi ko‘rilayotgan chora – tadbirlar natijalarini baholashga qaratilgan reyting va indekslar mavjud. Bunga davlat siyosati va ko‘rilayotgan chora – tadbirlarda belgilangan vazifalar korrupsiya muammosini qay darajada hal qilinayotganini aniqlashga yordam beruvchi Korrupsiyani qabul qilish indeksini misol qilib keltirish mumkin.

Korrupsiyani qabul qilish indeksi 1995 - yildan buyon 13 ta ekspert manbasi, jumladan, Jahon banki, Jahon iqtisodiy forumi, konsalting va reyting agentliklari, tahlil markazlari va boshqa tashkilotlar ma’lumotlari asosida shakllantiriladigan, davlat sektoridagi korrupsiyani qabul qilishni aniqlovchi reytingdir. Unda 180 ta davlat 0 dan 100 gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha tavsiflanadi, 0 – eng yuqori va 100 - eng past korrupsiya darajasini aks ettiradi. Indeks ko‘plab mamlakatlarda qiyosiy baholash sohasidagi eng mashhur ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Joriy yilning 30 - yanvar’ kuni “Transparency International” xalqaro tashkiloti 2023 – yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksini e’lon qildi. E’lon qilingan natijalarga ko‘ra, O‘zbekiston indeksdagi o‘rnini jadallik bilan o‘nglab, 33 ball bilan 180 mamlakat orasida 121 – o‘rinni egalladi. E’tiborlisi shundaki, xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, Mamlakatimiz keying yillarda korrupsiyani qabul qilish bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar qayd etayotgan yagona davlat va uning ko‘lami bo‘yicha mintaqa yetakchisiga aylandi. Bu albatta 2017 - yildan buyon mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish asosiy yo‘nalarlardan biri sifatida yuritilayotgan davlat siyosati tufayli amalga oshdi.

Davlat va Jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish bo‘yicha vazifalarni samarali bajarish korrupsiyaga qarshi kurashishda tizimli chora – tadbirlar qabul qilishni taqozo etmoqda. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush tarzi, shariatlarini yaratish yaratishga qaratilgan demokratik islohotlar muvaffaqiyating asosiy me’zonlaridan biriga aylanmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, **“Korrupsiya illati xatto eng qudratli davlatlarni ham jar yoqasiga olib kelgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik Jamiyat va davlatning muqaddas burchidir”**.

Kombinat ishchi - xodimlaridan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining har qanday shakliga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda mas'uliyat bilan ishtirok etishlarini so'rayman.

Sizlarni befarq bo'lmaslikka, poraxo'rlik va korrupsiya, qarindosh urug'chilik, manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda faol hayotiy pozitsiyani egallashga chaqiraman.

Umumiy masalalar bo'yicha Boshqaruv raisi o'rinbosari
Akmal Mamatovich Sharipov